

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITEI

MAKTABGACHA TA`LIM METODIKASI KAFEDRASI

**MAKTABGACHA TA`LIM
TASHKILOTLARINING TURLI YOSH
GURUHLARIDA NUTQNI RIVOJLANTISIH
MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH
METODIKASI**

(“Ilk qadam” davlat o`quv dasturi asosida)

O`QUV-USLUBIY QO`LLANMA

Namangan-2019 yil

O`uv-uslubiy qo`llanma oiliy ta`lim muassasalarining maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabalariga mo`ljallangan bo`lib, turli yosh guruh bolalari nutqini rivojlantirishning oz`iga xos xususiyatlari va texnologiyalari yoritilgan.

Tuzuvchilar: Maktabgacha ta`lim metodikasi kafedrasida katta o`qituvchisi N.Abdusamatova

Taqrizchilar: O`. Asqarova p.f.n., dotsent.
M. Hamidova f.f.n., dotsent

Ushbu uslubiy qo`llanma NamDU o`quv-uslubiy Kengashining 2019 yil ____
_____dagi № ____ sonli yig`ilishida muhokama qilingan va nashrga
tavsiya etilgan.

SO`Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tarkibiy qismlaridan biri — shaxsdir, u ayni paytda kadrlar tayyorlash tizimi, ta’lim xizmatlarining iste’molchisi va ishlab chiqaruvchisining bosh sub’yekti hamda ob’yekti hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri mustaqil O‘zbekistondagi o‘sib kelayotgan yosh avlodlarning til madaniyati va muloqot madaniyatini tarbiyalashdan iborat. Bolalar shaxsini shakllantirishning eng muhim komponenti hisoblanuvchi ushbu ish ona tili — davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillar, ayniqsa jahon tillariga ham teng darajada taalluqlidir.

Bu jarayonda maktabgacha ta’lim dastlabki bo‘g‘in hisoblanadi. Bolalarning ona tilida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq ma’naviy boyligini meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o‘z zamonasining ilmiy yutuqlarini o‘zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg‘or axloqiy va estetik ideallariga qanchalik sodiq bo‘lib voyaga yetishlari bevosita tarbiyachiga bog‘liqdir.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachisining bolalarga ona tilini o‘rgata olish qobiliyati uning yuqori mahoratini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bolaga tabiat ato etgan barcha aqliy qobiliyatlar unda ona tilini o‘rganib olishi tufayli ko‘zga tashlanadi va rivojlanadi.

Bolaga ona tilini o‘rgatishni kasb sifatida egallash uchun bo‘lajak tarbiyachi metodika nazariyasini yaxshi o‘zlashtirishi va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini egallashi zarur.

Bo‘lajak tarbiyachi turli usullardan foydalanishi va nima uchun ushbu usul bolalarga foyda keltirayotganligani, nima uchun bola zavq-shavq bilan yaxshi tinglayotganini anglasa u yoki bu ta’lim usulini o‘zlashtirib oladi.

Bo‘lajak tarbiyachi uchun metodika nazariyasini o‘zlashtirib olish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki uning bilimi uning qanday ma’lumotga egaligi haqida tushuncha beradi va faqat ziyoli odamgina tanlagan mutaxassisligida yuqori amaliy natijalarga erishishi mumkin.

Bolalarga ona tilini o‘rgatishga doir amaliy vazifalarni hal etishda zarur ma’lumotga egalik hamda tajribalilik — bu o‘sib kelayotgan avlodga malakali darajada ta’lim va tarbiya berish uchun tarbiyachi egallashi shart bo‘lgan professional sifatlardir.

KICHIK VA O`RTA GURUH YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O`ZIGA XOSLIGI

Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bolalarni nutqiy tarbiyalash uchta o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq sohani tashkil etadi. Bular: atrofni o‘rab turgan olamdagi hodisalarni (real voqelikni) anglash va so‘z bilan belgilash; atrofdagilar bilan aloqalarni va nutqiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish; tilni (uning ovoz tarkibini, lug‘atni, grammatik qurilishini) odsiy anglash.

Bola ko‘p obrazli obe‘ktlar va hodisalar bilan, ularning xususiyatlari, harakatlari, holati, qurilishi va ularni belgilovchi so‘zlar bilan; sabzavot va mevalar, mebellar, idish-tovoqlar, kiyim-boshlar, buyumlar detalari va qismlari nomlari bilan (onam oshpaz bo‘lib ishlaydi, u tushlik tayyorlaydi, kirlarni yuvadi, kiyimlarni dazmollaydi) va aniqlovchilar bilan (onam yaxshi, mehribon, aqlli, chiroyli, sevimli va h.) tanishadi.

Bola sabab - oqibatli aloqalar, vaqgbay, muhit, miqsoriy va boshqa aloqalarni anglash bilan bir vaqgning o‘zida ularni grammatik shakllarda va qurilmalarda (birlik va ko‘plik son, ot kelishigi, fe‘l zamonlari va turlari, orttirma zamonli murakkab gaplar, maqsad va h.k.) ifodalash usullarini o‘zlashtiradi.

Bola grammatik vositalarning keng turini o‘zlashtiradi, Masalan, «Nima yo‘q» nomli didaktik o‘yinida grammatik shakllardan foydalanadi: mo‘yqalam, ruchka, qaychi va h.; «Sayohatda» o‘yinida o‘ziga to‘rt oyoqli do‘stlar tanlaydi: sichqoncha, qurbaqacha, tulkicha, kirpicha; qo‘g‘irchoq uchun nonushta uyushtirar ekan dasturxonga choynakni, qanddonni va tuzdonni qo‘yadi va o‘ylanib qoladi: qand uchun - qanddon, suxari uchun — suxaridonmi?

Bolalar sababli, vaqea va boshqa munosabatlarni turli xil murakkab gaplarda ifodalashni o‘rganadilar. Chunonchi, «Bunday bo‘ladimi-bo‘lmaydimi?» o‘yinida ular noto‘g‘rilikni payqab qoladilar va nima uchun «»mushukcha vovulladi» yoki «tovuqlar miyovladi» deb bo‘lmasligini tushuntirib beradilar, nutqda «chunki» bog‘lovchisi bilan birgalikda orttirma gaplardan foydalanadilar. «Nima nima

uchun» o‘yinida esa orttirma gapni «uchun» bog‘lovchisi bilan birga qo‘llagan holda qaychi, mo‘yqalam, qoshiq nima uchun kerakligini tushuntirib beradilar.

Bola tildan foydalangan holda uning xususiyatlarini o‘rganadi, so‘zlar va grammatik shakllar orqali u bilan sinovlar o‘tkazadi. Bolalar aks ma’noli so‘zlarning (antonimlar: o‘rta-kichik, baland-past, tor-keng) o‘zaro bog‘liqigini, ma’no jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlarni (sinonimlar: kuchuk, kuchukcha, olapar), so‘z yasovchi juftlikdagi so‘zlarni o‘zlashtiradilar. Ko‘p ma’noli so‘zlar bilan tanishadilar (qizchaning qo‘li, qo‘g‘irchoqning qo‘li, o‘quvchining qo‘li, dazmolning ushlagichi, qutining ushlagichi, kastryulning quloga, bolaning oyog‘i, stulning oyog‘i, gulning oyog‘i, qushning oyog‘i).

Maktabgacha kichik yoshli bola uchun o‘rtoqlar bilan muloqot hamon tilni, nutqning shakl va vazifalarini rivojlaitirishning asosiy manbasi sifatida chiqadi. Bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun uning o‘z tengdoshlari bilan o‘ynashi ham muhim ahamiyatga ega. Bir-biriga yaqin joyda o‘ynar ekan bolalar o‘yinda tengdoshining ham ishtirok etayotganidan va uning e‘tiborini jalb qilganidan quvonadilar, o‘zlarining o‘yinlarini sharhlaydilar. Natijada birgalikdagi ko‘ngilochar o‘yinlar paydo bo‘ladi, unda bolalar rollarni, o‘rin bosuvchi narsalarni (bu tayoq ot bo‘ladi, mana bu uchburchak esa telefon bo‘ladi), o‘yin harakatlarini so‘z bilan ifodalaydilar, birgalikda harakat qilish, syujetni rivojlantirish haqida kelishib oladilar, unchalik murakkab bo‘lmagan suhbatni olib boradilar.

Mustaqil o‘yinlarda bolalarning kommunikativ ijodkorligi rivojlanadi. Bolalarning o‘rtoqlari bilan birgalikda uyushtirilgan o‘yinlari — xalq o‘yinlari, syujetli-rolli, teatrlashtirilgan, didaktik o‘yinlar muhim vazifani bajaradi.

Uyushtirilgan o‘yinlar keng umumrivojlantiruvchi mazmunga va tor didaktik mazmunga (fonetik, leksik, grammatik) ega bo‘lishi mumkin. Keng umumrivojlantiruvchi o‘yinlar bir vaqtning o‘zida nutqqa yalpi ta’sir ko‘rsatadi: bolalarni nutqiy hamjihatlikda (dialogga) kirishishga undaydi, suhbatdoshga, uning tashqi ko‘rinishiga, ovozigga, u tasvirlayotgan personajga e‘tiborni jalb

qiladi, nutqning tovush jihatiga (tovushga taqlid qilish) va uning leksik tarkibiga (obrazli-ifodali soʻzlar) yoʻnaltiradi, syujetni rivojlantirish, soʻzni va ifodali harakatni taqqoslashni oʻrgatadi. Xalq oʻyinlari, syujetli-rolli oʻyinlar, ertaklar va adabiy asarlar boʻyicha turli xil oʻyinlar (oʻyin-sahnalashtirish).

Soʻzli didaktik oʻyinlar nutqiy rivojlanish vazifalarni yanada tabaqalashtirilgan holda hal etishga, yaʼni: feʼllarni, sifatlarni, umumlashtiruvchi nomlarni («Uchadi-uchmaydi», «Maʼzasidan top», «Yesa boʻladimi-boʻlmaydimi?») faollashtirishga, soʻz yasash usullarini shakllantirishga («Tavsifi boʻyicha top-chi», «Choy ichish»), u yoki bu tovushni toʻgʻri talaffuz etishni mashq qilishga («Kimning ovozi», «Ajoyib xaltacha») yoʻnaltirilgan.

Bolalarning tovushlar, qofiyalar, soʻzlar bilan mustaqil oʻynashi, uyushtirilgan oʻyin jarayonida birdaniga roʻy beradigan til bilan oʻziga xos tarzda sinov oʻtkazishlar alohida ahamiyatga ega. Folklor va mualliflik asarlaridagi til oʻyinlari ulkan ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy muloqotning asosiy shakli dialog hisoblanadi. Nutqning vaziyatga asoslanganligiga unga xos va mosdir. Bolalardan toʻliq javob olmaslikka intilmaslik darkor, bu muloqot mantigʻiga ziddir. Qachonki bola kundalik turmushda oʻzini qiziqtirgan mavzu yuzasidan oʻz tashabbusi bilan fikr bildirsa — tarkiban rasmiylashtirilgan yoyiq gaplar oʻz-oʻzidan yuzaga keladi.

Maktabgacha oʻrta yoshdagi davr (4 yoshdan 5 yoshgacha)

Toʻrt yoshga kelib bola bevosita vaziyatdan chetga chiqadigan mavzular boʻyicha oʻrtoqlari bilan muloqot qila oladi; nutq yordamida oʻz tengdoshlari bilan syujet-rolli mustaqil oʻyinda hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga qodir; tilni oʻrganishda faol va mustaqil, bu tovushlar, qofiyalar, soʻz ijodkorligida, buyumlarning nomlari va ularning qanday maqsadlarda ishlatilishi haqidagi savollarda koʻrinadi; tovushlarni asosan toʻgʻri talaffuz qiladi («R»ni «L» ga almashtirish holatlari, «Sh» tovushli soʻzlarni talaffuz qilishda ayrim noaniqliklar boʻlishi mumkin).

Maktabgacha o`rta guruh yoshdagi davrda nutqiy tarbiyaning mazmuni ikki o`zaro bog`liq sohani tashkil etadi. Bular: ona tilini (fonetika, leksika, grammatika) hamda bilish faoliyati va muloqotda tilni qo`llash usullarini o`qitish. Tilni egallash atrof-muhitdagi hodisalar va ko`p turdagi muloqotlar haqidagi bilimlarning kengayish jarayonida yuz beradi. Lekin maktabgacha o`rta yoshdagi bolani rivojlantirishdagi markaziy bo`g`in — til va nutqni anglash vazifalarini bolaga tushunarli shakllarda shakllantirish hisoblanadi. Tilni egallash sohasida uch bo`g`in ajralib chiqadi: atrofdagilar bilan his-hayajonli aloqalarni yo`lga qo`yish; fikrni shakllantira olish, axborot — matn qura olish qobiliyati; sherik bilan nutqiy hamkorlikni yo`lga qo`ya olish. Maktabgacha o`rta guruh yoshidagi davrda tengdoshlar bilan muloqot kommunikativ faoliyat sohasi sifatida oldingi o`ringa chiqadi. Bu faoliyat sohasida bola o`zining muloqotga bo`lgan ehtiyojlarini qondiradi, tilni bilish va ravon nutqni rivojlantirish borasidagi o`z yutuqlari bilan o`rtoqlashadi va sheriklar bilan hamkorlik qilishni o`rganadi.

Maktabgacha o`rta guruh yoshidagi yoshdagilar o`rtoqlar va tengdoshlar bilan muloqot qilish, uyushtirilgan so`zli o`yinlar va mashg`ulotlar nutqni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadilar.

Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo`lga qo`yish uchun kooperativ tusdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat asta-sekin shakllanadi. Dastlab bolalar ro`y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, ya`ni chizilgan narsalarni so`z bilan ifodalagani, o`z hayotidagi biron-bir voqea to`g`risida so`zlab bergani holda bir-birlariga yaqin joyda harakat qiladilar. Bu vaziyatda nutq tengdoshning ishtiroki bilan hamda u bilan gaplashish, rejalashtirishni bajarish va o`z faoliyatini tashkil etish, shuningdek ijtimoiy aloqa o`rnatish imkoniyati bilan rag`batlantiriladi.

Bolalar o`rtasidagi muloqot asosan amaliy tusga ega. Dialog ko`pincha shunday shaklda bo`ladiki, unda bola sherigining qisqa luqmalariga javob beradi yoki ro`y berayotgan hodisaga nisbatan o`z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ko`pgina shunday xalq o`yinlari borki, ularda bolalar bir-

birlariga e'tiborni qaratishni, do'stlarni ovozidan, kiyimidan, yurishidan tanib olishni, nutqiy aloqa o'rnatishni o'rganib oladilar.

Stol o'yinlari («loto», «domino») dialogik muloqotni yo'lga qo'yishning ajoyib vositalaridir. Aynan juftlikdagi o'yinlarda bolalar dialogik hamkorlik vositalari: navbatga rioya qilish, bir-birlarini ismini aytib yaxshi muomalada bo'lish, o'z nuqtai-nazarini dalillagan holda himoya qilish, sherik bilan gaplarini muvofiqlashtirish usullarini o'rganib oladilar. Barcha turdagi nutq vazifalari: berilgan tovushli so'zni tanlab olish, artikulyasiya va akustika jihatidan yaqin tovushlarni ajrata bilish, umulashtiruvchi nomlariga qarab tasniflash, rasmlar seriyasi («Tovushni top», «Nima yo'q», «Ushlab ko'rib top», «Eslab qol va chiz») asosida birgalikda hikoya qilish yuqoridagi o'yinlarning bilish asosi sifatida chiqishlari mumkin.

Didaktik o'yinlarda bolalar izohlovchi nutqni ham o'rganadilar. Buning uchun o'rta odam dastlab bir bolaga yangi o'yinni o'rgatadi, keyin esa boshqa bolalarga shu o'yinni o'ynashni taklif qiladi. O'rgatilgan bola o'ziga notanish bo'lgan bolalar bilan o'yinni yo'lga qo'yish uchun o'yin mazmuni va qoidalarini tushuntirib berishga majbur. Tarbiyachi esa unga yo'naltiruvchi savollarni berish orqali yordam beradi.

Jamoaviy suhbatlar, gurunglar dialogni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir bola o'z fikrini aytish imkoniyatiga ega bo'lishi va uni eshitishlari uchun yuqoridagi suhbatlarni bolalarning kichik guruhlarida uyushtirish zarur. Shaxsiy tajribadan kelib chiquvchi biron-bir voqea, turmushdagi qiziq voqealar, tasavvur etiladigan turli vaziyatlar (begonalarga eshikni ochish mumkinmi va nega? It hurayotganida nima uchun undan qochish kerak va h.) bunday suhbatlarning mavzui bo'lishi

Kooperativ tisdagi asosiy faoliyat turi — syujetli-rolli o'yinlardir. Maktabgacha davrdagi o'rta guruh yoshda bu o'yinlar xayolparastlik o'yinlariga aylanadi, chunki unda bolalar sarguzashtlar to'qiydilar va ularni tasavvur etish bilan cheklanadilar. Faoliyat birgalikda hikoya qilish tusini oladi. Bu o'yin va nutq

rivojining juda yuqori darajasidir. Bolalar ko‘pincha yo‘naltiruvchi savollar beruvchi, syujetning davomini aytib turuvchi, navbat tashkil qilishga yordam beruvchi katta odam ishtirokiga ehtiyoj sezadilar.

An’anaviy ertakdagi qahramonlarni, voqea joyi, sharoit, sehrlil buyumlarni almashtirgan holda to‘qiladigan sehrlil ertak bunday xayolot o‘yinlari mavzulari bo‘lishi mumkin. Uyin bolalar qadamba-qadam tuzadigan (lavhalarning sxematik tasvirini chizadilar) va «ovoz beradigan» syujet rivoji asosida ikki bolaning birgalikda hikoya to‘qishiga aylanib ketishi mumkin.

Birgaliqdagi xayolot o‘yinlari bolalar hikoya qilish jarayonida biladigan usullar orqali muvaffaqiyatli davom etishi mumkin. Katta odam bilan bolaning hamjihatlikdagi so‘z ijodkorligi ravon nutqni (hikoya qilishni) rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Katta odam yo‘naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollar berish, o‘zining qiziqayotganligani bildirish, o‘yin vaziyatlarini hosil qilish (o‘yinchoqlar, rasmlar to‘plami, qo‘g‘irchoq teatrli qahramonlari yordamida) bilan bola tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Pedagoganing hikoya mavzusini, voqealar rivojini, voqealarning ehtimoliy yakunini, so‘z shaklini aytib berishi birgalikdaga so‘z ijodkorligi uchun katta ahamiyatga egadir. Birgalikda hikoya qilib berish dastlab dialog ko‘rinishiga ega bo‘ladi, bunda katta odam savol beradi, bola javob beradi, katta odam gapni boshlaydi, bola esa uni nihoyasiga etkazadi.

Bunday dialogdan nutq — monolog tug‘iladi. Keyinchalik bolada monolog asosida bolalarning birgalikdagi ijodkorligi boshlanadi, u kattaning bola bilan dialogi shaklini takrorlaydi. Birgaliqda hikoya qilish uchun yaxshi asos rasmlar turkumi bilan ishlashda, rollarga bo‘linib hikoya qilib berishda, o‘yin-sahnalashtirishlarda yaratiladi.

KICHIK VA O`RTA GURUHLAR UCHUN NUTQNI RIVOJLANTISH MASHG`ULOTI ISHLANMALARI

Mavzu: O'yinchoqlarga g'amxo'r munosabat.

Ta'limiy maqsad: Bolalarga o'yinchoqlar haqida ma'lumot berish. Ularni o'yinchoqlarga bo'lgan munosabatni shakllantirishdan iborat. O'yinchoqlarni qandayligi ularni bir-biridan farqlarini bolalarga turli xil rasmlar asosida va jonli o'yinchoqlar orqali o'rgatib borish.

Tarbiyaviy maqsad: Tarbiyalanuvchilarni bir-biriga bo'lgan munosabatini o'yinchoqlar ishtirokida ijobiy xislatlarni, fazilatlarini shakllantirish. Bolalar otanaga va yaqinlariga bo'lgan munosabatni ana shu o'yinchoqlar orqali aks ettirishi.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarni o'yin mashg'ulot davomida monologik va dialogik nutqni o'stirish. O'yinchoq o'ynash natijasida bolalarda nutqni muloqot shaklini o'stirish!

▪**Kerakli jihozlar:** O'yinchoqlar markazidagi turli xil o'yinchoqlar, rasmlar.

▪**Metod va usul:** savol javob, suhbat.

▪**Mashg'ulotning borishi:**

■**Tarbiyachi:**

☆ **Bolajonlar**

■ **Tarbiyachi:**

Mana bolajonlar mana bu rasmdagi shirintoy bolajonni qo'lidagi o'yinchoq nomi nima bilasizlarmi? Bu ayiqcha. Buni hammamiz yaxshi bilamiz. Bu ayiqcha, quyuncha kabi o'yinchoqlar yumshoq bo'ladi. Shuning uchun ularni **yumshoq o'yinchoqlar** deb ataymiz.

■ **Tarbiyachi:**

▪Bolalar qanii bir o'yin o'ynaymiz. Hozir bizga o'yinchoqlarimizdan ayiqcha kerak bo'ladi. Bu qanday o'yinchoq turiga kiradi qanii bolajonlar:



☆ **Bolajonlar:** Yumshoq o'yinchoq.

■ **Tarbiyachi:** Judayam to'g'ri barakalla bolajonlarim. Ana endi o'yinimizni boshlaymiz. Bu o'yinimizni nomi “**Ayiqchanikiga mehmonga boramiz**” deb nomlanadi.

■ **Tarbiyachi:**

▪ Mana shunday davom etadi.

Bolalarda mehmondo'stlik, mehribonlik o'yinchoqlarga yaxshi munosabat kabi tushunchalarni oila a'zolarini kasb o'yinchoqlarini ham sekin astalik bilan o'rganib boriladi.

● **Jismoniy daqiqa:**



Ayiqchamni oyog'i tushdi uzilib,

Qarab turar ayiqcham ko'zi suzilib.

Men ayiqchamni yaxshi ko'raman,

Uzilgan oyog'in tikib qo'yaman!

▪ Bu mashq bolalarni nafaqat tetiklashtiradi, harakatga keltiradi balki

ularda o'yinchoqlarga nisbatan mehrni uyg'otish mumkin.

■ **Mustahkamlovchi savollar:**

▪ Ayiqcha , quyoncha kabi o'yinchoqlar qanday o'yinchoqlar sirasiga kiradi?

▪ O'yinchoqlarimiz uzoq muddat biz bilan birga bo'lishi uchun nima qilish kerak?

■ **Yakunlovchi qism:** O'yinchoqlarimizni ehtiyotlab o'ynashimiz. O'ynab bo'lgandan keyin esa yana joyiga qo'yishimiz. Uyimizda qanday o'yinchoqlar borligini bilib kelish ularni nomlari bilan.

Mashg`ulot nomi: Nutqni rivojlantirish.

Mavzu: Kiyim bosh.

Guruh: Kichik.

Ta`limiy maqsad: Bolalarni kiyim bosh turlari bilan tanishtirish, kiyim nomlarini to`g`ri aytishga o`rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarni o`z kiyimlarini ozoda tutishga va yil fasllariga mos holatda kiyinishga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalar aqli va xotirasini topishmoq va o`yinlar orqali rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Har bir yil fasliga mos kiyimlar surati, rag`batlantirish kartochkalari.

Metod: Savol-javob, ko`rgazmalilik, tushuntirish, qiyoslash.

Mashg`ulotning borishi:

Tarbiyachi: Salom bolajonlar! Hamma mashg`ulotga tayyormi?

Bolalar: Ha.

Har bir bolaga to`rtta faslga mos holda kiyingan bolalar rasmini beriladi.

Tarbiyachi: Qani, bolalar o`lkamizda nechta fasl bor?

Bolalar: To`rtta fasl bor.

Tarbiyachi: Barakalla bolalar! To`g`ri topdingiz. Endi ayting-chi hozir o`lkamizda qaysi fasl?

Bolalar: Qish fasli.

Tarbiyachi: Judayam to`g`ri bolalar. Qishda qanday kiyimlar kiyamiz? Ularni nomlarini ayting-chi?

Bolalar: Shapka, kurtka, etik, qo`lqoplar.

Tarbiyachi: To`g`ri. Endi qo`limizdagi rasmlarga qaraymiz.



Bolalar qish fasliga mos holda kiyingan bolalar qaysi rasmda tasvirlangan?

Bolalar: Uchinchi qismida.

Tarbiyachi: Judayam to`g`ri. Endi rasmni ikkinchi va to`rtinchi qismiga qaraymiz.



Rasmda bahor va kuz fasliga mos holda kiyingan bolalar rasmlari tasvirlangan. Bolalar rasmlarni ko`rishadi.

Tarbiyachi: Demak biz bahor va kuzda yozga nisbatan issiqroq ya`ni jenfer, kostyum, tufli, kepka kiyimlarini kiyishimiz mumkin. Qani bolalar! Menga aytinglar-chi rasmning birinchi qismida ko`ylak, fudbolka, shlyapa, basanochka iygan bolalar tasvirlangan bo`lsa, ular qaysi faslga mos holda kiyinishgan?

Bolalar: Yoz fasliga mos.

Tarbiyachi: Barakalla! Biz sog`lom bo`lishimiz uchun yil fasllariga mos holatda kiyinishimiz, kiyimlarimizni ozoda tutishimiz, iflos qo`llarimiz bilan kiyimlarimizni ushlamasligimiz kerak Shundagina biz sog`lom , chiroyli, hamda kuchli bo`lib o`samiz.

Bolalarga kiyimlarga mos topishmoq beriladi.

Tarbiyachi: Qora charmdan

tikdik

Oyoqqa kiyib oldik

Suvli ,loyli yo`llardan

Qo`rqmas bizning oyoqlar.

Bolalarga topishmoqning javobi
nima ekanini rasmda ko`rsatiladi.

Rasmdagi kiyimning nomini
bilasizmi?



Bolalar: Etik

Tarbiyachi: Barakalla! Demak

topishmoqning javobi “Etik”. Etikni qishda ya`ni sovuq bo`lganda kiyamiz.

Shunda oyoqlarimiz issiq bo`ladi. Endi-chi bolalar sizlar bilan qiziqarli o`yin
o`ynaymiz.

Bolalar o`rnilaridan turishadi

Jismoniy daqiqa



O`ng qo`limda dushanba

Chap qo`limda seshanba

Ko`zlarimda chorshanba

Yuzlarimda payshanba

Oyoqlarimda shanba



Dam olamiz yakshanba



Yakuniy qism:

Tarbiyachi: Bolalar bugun nimalar bilan tanishdik?

Bolalar: Kiyim boshlar bilan.

Tarbiyachi: Qanday kiyimlar nomini bilib oldiz?

Bolalar: Shapka, etik, kostyum, ko`ylak, tufli.

Tarbiyachi: Kiyimlarni qay holda kiyishimiz kerak.

Bolalar: Yil fasllariga mos va ozoda kiyishimiz kerak.

Tarbiyachi: qo`lingizdagi rasmlarda nimalar tasvirlangan?

Bolalar: Fasllarga mos kiyingan bolalar tasvirlangan.

Shu kabi savollar bilan mashg`ulot mustahkamlanadi.

Mashg`ulot nomi: Nutqni rivojlantirish

Mavzu: Hashorotlar

Guruh: Kichik

Ta`limiy maqsad: Hashorotlar va ularning nomi bilan tanishtirish, zararkunanda va foyda keltiradigan hashorotlarni farqlashga o`rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalar o`rtasida do`stona munosabatni yaratish, kichik guruhlarda ishlashga o`rgatish, tabiatga va undagi foydali hashorotlarga mehr uyg`otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalar tafakkuri va xotirasini o`yin orqali rivojlantirish, ma`nan barkamol shaxsning shakllamishiga ko`maklashish.

Kerakli jihozlar: hashorotlar surati, ertak kitoblar

Metod: Ko`rgazmalilik, savol-javob, kuzatish, tushuntirish.

Mashg`ulotning borishi:

Har bir bolaning qo`liga hashorotlar rasmlari beriladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar qo`lingizga bergan suratlarimga qaraymiz. Bu rasmlar bilan bitta bitta tanishamizmi?

Bolalar: Ha

Tarbiyachi : Demak birinchi rasmni qo`limizga olamiz.
Bolalar kapalak rasminini qo`lga olishadi.



Tarbiyachi: Bolajonlar bu chiroyli hashorotning nomini bilasizmi? Bilsangiz qani aytingchi buning nomi nima ?

Bolalar: Bu hashorotning nomi “Kapalak”

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar.Ularni ko`proq gullarning atrofida uchratishimiz mumkin. Chunki ular gullarni judayam yaxshi ko`rishadi.Sizlar ham gullarni yaxshi ko`rasizmi?

Bolalar : Ha

Tarbiyachi: Judayam yaxshi endi keyingi hashorotimiz bilan tanishamiz . Keyingi rasmga qaraymiz.

Bu rasmda nima tasvirlangan? Bu rasmda asalarini ko`ramiz .
Asalari qanday ovoz chiqarib uchadi “Vizz-vizz” deb ovoz chiqaradi bolajonlar.
Qani qaytaraylikchi?

Bolalar : Vizz-vizz, vizz-vizz

Tarbiyachi: Barakalla! Bilasizmi
bolalar asalari bizga ko`p mehnatlar qilib , mazzali bo`lgan asalni yig`adi. Shuning uchun asalari bizning do`stimiz.



Keling bolalar men sizlarga keyingi hashorotni ertak orqali tanishtiraman.

Bir bor ekan, bir yo`q ekan. Qadim zamonda bir chumoli bo`lgan ekan.

Bolalarga chumolining

rasmi ko`rsatiladi.

Kunlardan bir kun chumoli yo`lda ketayotib bir kishiga yo`liqibdi. U odam barcha qushlar va jonzotlar tilini bilarkan.

-Nega boshing bunchalar katta?- deb so`rabdi odam chumolidan.



-Nimagaki boshim aql-zakovatga to`la,- deb javob beribdi chumoli.

-Nega beling bu qadar ingichka?- yana so`rabdi odam.

-Chunki juda kam ovqat yeyman?- debdi chumoli.

-Xo`sh, qancha ovqat yeysan?- so`rashda davom etibdi odam.

-Bitta bug`doy doni menga bir yilga yetadi,- deb javob qaytaribdi chumoli.

-Ko`ramiz, bitta bug`doy doni bir yilga yetarmikin, yo`qmi,- debdi odam va qalpog`ini astarini ochib, ichiga chumoli bilan bir dona bug`doy donini solib qo`yibdi.

Oradan bir yil o`tibdi. Odam chumoli haqida butunlay unutib yuboribdi. Ikkinchi yil tugay deganida birdan chumoli bilan kelishuv esiga tushibdi. Qalpog`ining astarini ochib ko`rsa, chumoli hamon o`tirganmish, yonida yarimta bug`doy doni turganmish.

-Bitta bug`doy doni menga bir yilga yetadi deganding, ikki yil o`tsa ham zaxirangda donning yarmi turibdi-ku,- debdi hayratlanib odam.

-Meni qalpog`iga tiqib qo`ygan tentak umuman esidan chiqarvorsa kerka deb o`ylab, ochdan o`lmaslik uchun bug`doy donini to`rt qismga bo`lgandim,- javob qaytaribdi chumoli.

Demak rasmda qaysi hashorot tasvirlangan ekan?

Bolalar: Chumoli

Tarbiyachi: Barakalla! To`g`ri topdingiz. Bu chumoli. U judayam mehnatkash,aqlli,sabrli.

Hozir biz sizlar bilan qiziqarli o`yin o`ynaymiz.Qani, bolalar yarim oyga o`xshab turib olaylik-chi!

Bolalar yarim oy shaklida turadilar.

Tarbiyachi: Qo`llarimizni balandga qanday ko`taramiz?

Bolalar: Daraxtlar kabi.

Tarbiyachi: Qo`llarimizni qanday ushlaymiz?

Bolalar: Tog`lar kabi.

Tarbiyachi: Qo`llarimizni yuqoriga ko`tarib,qanday tebratamiz?

Bolalar: Shamol kabi.

Tarbiyachi: Qo`llarimizni oldinga uzatib,qanday harakatlantiramiz?

Bolalar: Yomg`ir yog`gandek.

Tarbiyachi: O`tirgan holda barmoqlarimizni qanday sakratdik?

Bolalar: Yomg`ir yerga tushgandek.

Tarbiyachi: Qo`llarimizni yonga uzatib ,qanday tebratamiz?

Bolalar: Qushlar uchayotgandek.



Tarbiyachi: Qo`limizni yarim bukib,barmoqlarimizni ochib qanday sakraymiz?

Bolalar: Gullar ochilgandek.

Tarbiyachi : Bularning bari bahor faslida ro`y beradi.Hashorotlar ham o`z uylaridan bahor faslida chiqishadi. Endi bolalar o`z joyimizga o`tiramiz .

Yakuniy qism: Tarbiyachi: Bolalar

bugun biz nimalarni o`rgandik?

Bolalar: Hashorotlarni.

Tarbiyachi: Qaysi hashorotlar haqida bilib oldingiz?

Bolalar: Chumoli, chigirtka, kapalakni bilib oldik.

Tarbiyachi: Barakalla!

Shu kabi savollar bilan mashg`ulot yakunlanadi.

Mashg`ulot nomi nomi: Nutqni rivojlantirish

Mavzu: Bizning inoq mamlakat

Guruh: Kichik guruh

Maqsad: Bolalarni nutqini rivojlantirish, ongini o`stirish, dunyoqarashini kengaytirish

Ta`limiy: Bolalarda so`z boyligini oshirish, nutqiga yot bo`lgan so`zlarni ular nutqiga mos ravishda talaffuz qildirishga o`ragatish.

Tarbiyaviy: Bolalarda Vatan tuyg`usini shakllantirish, ularga do`stlik, inoqlik tuyg`ularini tushuntirish va tarbiyaviy ahamiyatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: Bolalarni hartomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlantirish:

Kerakli jihozlar: Ko`rgazmali suratlar, yurtimiz bayrog`I va gerbi



tasvirlangan rasmlar, turli millat va elatlarning xalqlari tasvirlangan suratlar, R.

Imomberdiyevning "Inoqdo'st" hikoyasi.



Metod va usullar: Savol- javob metodi, suhbat metodi, hikoya qilib berish metodi, ko`rgazmalilik metodi.

Mashg'ulotning borishi :Assalomu alaykum aziz shirintoy bolajonalar!

Hamma sog'lomi?, kayfiyatlari yaxshimi?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Unday bo'lsa juda yaxshi bugungi mashg'ulotlarimizni boshlaymiz. Bolajonlar bugungi mashg'ulotimiz judayam ajoyib va qiziqarli. Bugun biz sizlar bilan jonajon Vatanimiz va unda bir-birlari bilan inoq yashayotgan insonlar haqida suhbatlashamiza aziz bolajonlar! Bolajonlar mana bu suratlarga hammamiz etiborimizni qaratamiz. Bu suratda Vatanimiz O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi va bayrog'I tasvirlangan, Harbiringizni qo'lingizda Vatanimiz bayrog'ining surati turibdi bolajonlar, ho'sh bayrog'imizda qanday ranglar tasvirlanagan ekan, qani?! Birgalikda shu ranglarni sanaymiz.

Bolajonlar va tarbiyachi: Havorang, qizil, oq, yashil.

Juda ham tog'ri bilimdonlar! Vatanimiz tinch va osuda shuning uchun bizning bayrog'imiz doimo balandlarda hilpirab turadi aziz bolajonlar. Shunday tinch yurtimizda barcha insonlar bir-birlari bilan ahil inoq yashaydilar, ular hech qachon ur ushmasdan doimo do'st bo'lib yashaydilar. Bizning yurtimizda rus, qirg'iz, qozoq, tojik, turkman kabi juda ko'plab millat vakillari yashaydi. Aziz bolajonlar! sizlarni ham do'stingiz ko'pmi, ular bilan har kuni birga o'ynaysizlarmi?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar hozirsizlarga "Ikki do'st" deb nomlangan hikoyani o'qib beraman. Qani hammamiz diqqatimizni jamlab eshitamiz



abolajonlar! Birbiriga qo'shni bo'lgan ikki Qodir va Nodir do'stlar bo'lgan ekan. Ular doim birga o'ynashar, qayerga borsa birga borishar ekan. Doim bir-birini himoya qilishar ekan. Bir kun Qodirga dadasi toychoq o'yinchoq sovg'a qilibdi, l ekin Nodirning unday o'yinchog'I yoq ekan, shuningu chun Qodir ham o'yinchog'ini unchalik o'ynashni hohlamabdi. Qodirning dadasi bundan hayron bo'libdi va Qodirdan olibbergan toychoq'I yoqmaganligini so'raganda Qodir toychoq juda yoqqanligini lekin unday o'yinchoq do'sti Nodirda yo'qligini aytibdi, ham hursand bo'libdi va shukuniy ana bir toychoq o'yinchoqni ham Qodirning do'sti Nodirga sovg'a qilibdi. Bundan ikki do'st juda hursand bo'libdi va endi birga toychoqlarni har kuni o'ynaydigan bo'lishibdi. Ko'rdilaringmi aziz bolajonlarular bir-birlariga juda mexribon va yaqin do'st bo'lishgan ekan. Sizlar ham hech qachon do'stlaringni hafa qilmanglar, doim inoq bo'linglar. Hikoyamiz yoqdimi bolajonlar?!

Bolajonlar javobi:

Jismoniy daqiqa:

Tarbiyachi: Unday bo'lsa juda yaxshi. Aziz bolajonlar zerikib qolmadingizmi? Toliqmadingizmi? Hozir sizlar bilan jismoniy daqiqalarimizni o'tkazib olamiz. O'rnimizdan turamiz, chuqur nafas olib chiqaramiz, bolajonlar. Qani birgalikda tetuklashib olamiza?!

Qushlar uchib kelishdi (qo'llarimiz ikki yonga ko'tariladi)

Ko'l bo'yiga qo'nishdi (qo'llarimiz pastga tushiriladi)

U yon bu yon qarashdi (boshimizni ikki yonga buramiz)

Suvdan uchib ketishdi(o'tiribvaastaturiladi)

Mashqimizni bir necha bor takrorlaymiz, bolajonlar. Ancha tetiklashib oldiga bolalar.

Mustahkamlovchi qism: Aziz bolajonlar bugungi mashg'ulotimi zyoqdimi? Zerikib qolmadingizmi?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Unday bo'lsa bolajonlar bugungi mashg'ulotimizni mustahkamlab olamiz. Qani bolajonlar bizning mamlakatimiz qayer?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Juda to'g'ri bolajonlar!

Bizning davlat ramzlarimiz qaysilar?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Juda yaxshi. Bayrog'imizda qanday ranglar tasvirlangan?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Bizning mamlakatimizda qanday millat va elatlar yashaydi?

Bolajonlar javobi:

Tarbiyachi: Juda to'g'ri bilimdon bolajonlar!

Uyga vazifa: Bugungi mashg'ulotimiz yuzasidan uyga vazifa sifatida bizning mamlakatimizda yana qanday millat vakillari biz bilaninoq, ahil, tich-osuda yashab kelmoqda?

Keyingi mashg'ulotlarimizda bu haqida suhbatlashamiz bolajonlar. Aziz bolajonlar bugungi mashg'ulotimiz yakunlandi.

Mashg'ulot nomi: *Nutqni rivolantirish*

Mashg'ulot mavzusi: Maishiy asboblari

Mashg'ulot o'tiladigan guruh: O'rta guruh

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarda maishiy asboblari haqida tasavvurlari hosil qilish

Ta'limiy maqsad: Ko'zgu, taroq, sovun, tish va kiyim cho'tka va bosgqa shu kabi buyumlar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: Bu buyumlardan foydalanishning ijobiy tomonlari haqida bolalarga ma'lumot berish.

Vazifalar: Ko'zgu, taroq, cho'ka, sovun kabi yangi so'zlarni bolalar lug'atiga kiritish. Yangi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, ularning ma'nosini tushuntirish.

Kerakli materiallar: Ko'zgu, taroq, sovun, tish cho'tka, kiyim cho'tka, ularga oid rasmlar, ko'rgazmali qurollar bu buyumlarni yasash uchun rangli qog'ozlar.

Metod va usullar: Ko'rgazmalilik, aqliy hujum, didaktik o'yin

Mashg'ulotning borishi: Bolalar o'z joylariga o'tiradilar. Tarbiyachi bolalarni maishiy asboblarni bilan tanishtiradi, bu buyumlardan qayerlarda va qay maqsadda foydalanish kerakligi to'g'risida tushuncha beradi. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarni bilimni sinash maqsadida ularga topishmoqlar aytadi:



Mixlangan qulog'idan,

Suv quyay oyog'idan.

Vaqt bilan soch tishlar,

Oynaga qarab ishlar.

Ishqasang gupuradi,

Mikroplarni ketkazadi.

Sochi o'sgan,

Boshiga bog'langan

Tishlarni tozalashga

Chog'langan.

Bolalar topishmoqlar javobini birma bir aytadilar. Shundan so'ng tarbiyachi jismoniy daqiqa o'tkazadi

Bizning o'rmon bog'chamiz,



Daraxtzor-u keng o'tloq.
Qo'l ushlab barchamiz,
Qo'shiq kuylaymiz har choq.
Ayni peshin chog'ida,
O'rmonning quchog'ida.
Asal qo'yib o'rtaga,
O'tirvolib o'rtaga.
Mazza qilib yalaymiz,
Turib yana o'ynaymiz.

Ushbu qo'shiqni tarbiyachi bilan bolalar kuylaydilar va so'zlarga mos ravishda harakatlar bajaradilar

Mustahkamlovchi qism : Tarbiyachi bolalarga mustahkamlovchi savollar beradi.

- 1) Bolalar har kuni uxlashdan oldin tishlarimizni nima bilan tozalaymiz?
 - 2) Ovqatlanishdan oldin va hojatdan chiqqandan so'ng qollarimizni nima bilan yuvamiz?
 - 3) Onajonimiz kiyimlarimizni nima bilan tozalydi.
- Tarbiyachi bolalarga ushbu rasmlarni ko'rsatadi.

Bolalar bu rasmlarga qarab hiloya tuzadilar.

Uyga vazifa: Tarbiyachi bolalarga yodlab kelish uchun ushbu she'rni beradi.

Keldi bahor, gul bahor,
Erib ketti oppoq qor.
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi marjon.
Suvlar oqar shildirab,
Yulduz boqar mildirab.

Chumolilar yayrashar,

Sho'x bulbullar sayrashar.

Mashg'ulot nomi: Nutqni rivojlantirish

Mavzu: O`simliklar bilan do`stlashamiz

Guruh: O`rta.

Ta'limiy maqsad: Bolalarni o`simliklar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish, o`simliklar dunyosi bilan tanishtirish. O`simliklar nomini to`g`ri aytishga o`rgatish. Kattalar mehnati bilan tanishtirish. Mavzuga oid she`rlar, topishmoqlarni yod olishga o`rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: O`simliklarni parvarishlarga, tabiatni sevishga, asrab-avaylashga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarni o`simliklar dunyosi bilan tanishtirishda ularni ikki guruhga bo`linishi (gulli va gulsiz o`simliklar), lug`at boyligini ko`paytirish.

Metod va usullar: Savol-javob, ko`rgazmalilik, tushuntirish.

Kerakli jihozlar: Predmetli, syujetli rasmlar, magnitli doska, sanoq cho`plar, koptok, yulduzchalar.



Mashg'ulotning borishi: Bolajonlar hozir biz siz bilan o`simliklar dunyosiga sayohat qilamiz. Bolajonlar qanday o`simliklar haqida bilasiz? Biz o`simliklarni qayerlarda uchratamiz? O`simliklardan qanday maqsadlarda foydalanamiz? Shu kabi savol-javoblar orqali bolajonlarning o`simliklar dunyosi haqidagi tushunchalari mustahkamlanadi.

O`yin: „Bo`lmagan voqea”

Tarbiyachi bolalarga hikoya aytib beradi, bolalar esa noto`g`ri aytilgan so`zni topadilar. Namuna: Qish fasli. Hamma yoqda gullar ochilgan. Bolalar muzlagan daryoda mazza qilib cho`milishyapti....

Tarbiyachi bolalarni o`simliklar rasmi va nomlari bilan tanishtiradi.

O`simliklarni nomlarini aytishni taklif etadi.



O`yin: „Tez ayt”

-Bolalar o`simliklar qishda ham o`sadimi?

-O`simlik barglari qanday rangda bo`ladi?

-Qaysi gullarni nomini bilasiz?

-Uyingizda qanday o`simliklar o`sadi?

Shu kabi savollar orqali o`yin davom ettiriladi.

Jismoniy daqiqa:

Shamol kabi esamiz,

Gullar bo`lib o`samiz

Yomg`ir kabi yog`amiz,

Tez joyga o`tiramiz.

Mashg`ulotga yakun yasash:

Savol-javob asosida o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Tarbiyachi:

-Bolajonlar bugun biz nimalar bilan tanishdik?...

-O`simliklardan sanab bering...?

-Gullarni qaysilarini bilasiz?

-Gullar qayerlarda o`sadi?

-O`simliklar yaxshi o`shishi uchun nimalar qilish kerak?

Tarbiyachi o`tilgan mashg`ulotni mustahkamlash uchun bolalarga ko`ptok orqali murojaat qiladi. Ya`ni bolalarga ko`ptokni o`rtog`iga otib, bir o`simlik nomini aytishni taklif qiladi. Shu orqali bolalarni esidan chiqib qolgan o`simlik nomlari yodga olinadi.

Rag`batlantirish: Mashg`ulot davomida yaxshi ishtirok etgan bolalarga yulduzchalar berib boriladi. Yig`ilgan yulduzchalarni sanab bolalar rag`batlantiriladi.

Mashg`ulot nomi: Nutqni rivojlantirish

Mavzu: Hayvonlar va qushlar dunyosi bilan do`stlashamiz

Guruh: O`rta

Ta`limiy maqsad: Bolajonlarni hayvonlar va qushlar haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish. Hayvonot va qushlar dunyosi bilan tanishtirish, ularni nomini to`g`ri aytishga o`rgatish. Mavzuga oid she`rlar, topishmoqlar va tez aytishlarni yod olishga o`rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarni hayvonot va qushlar dunyosiga qiziqtirish, ularni oziqlantirish va parvarishlash, tabiatni sevish va asrab avaylash

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda ularni ikki guruhga bo'linishi (yovvoyi va uy hayvonlar), qushlarni nimalar bilan oziqlanishi va ular haqidagi tasavvurlarini boyitish, lug'at boyligini oshirish.


Kerakli jihozlar: Hayvonlar va qushlarning syujetli va predmetli rasmlari va magnitli doska, haykalchalar va ajoyib xaltacha.

Metod va usullar: Og'zaki tushuntirish, klaster, ko'rgazmalilik va savol-javob.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, biz hozir sizlar bilan hayvonot va qushlar dunyosiga sayohat qilamiz. Har bir bolaning qo'liga hayvonlar va qushlar rasmlari beriladi.


1. Bolajonlar rasmdagi hayvonlar va qushlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Biz bu hayvonlar va qushlarni qayerlarda uchratamiz?
3. Hayvonlar va qushlar nimalar bilan oziqlanadilar?
4. Uy hayvonlariga qaysi hayvonlar kiradi?
5. Yovvoyi hayvonlarga misol keltiring?



Bolajonlarni hayvonlar va qushlar haqidagi tushunchalari shu kabi savollar bilan aniqlanadi va mustahkamlab boriladi

Tarbiyachi: Bolajonlar hayvonlar va qushlar bizning do'stimiz hisoblanadi, chunki ularning bolalarini ham yoqtiramiz to'g'rimi?

Endi sizlar bilan birgalikda hayvonlar va qushlarni bolalarini birgalikda topamiz




Nomim qiziq olmaxon,
Olmani xush ko'rmayman.
Lekin xushta'm yong'oqni
Chaqib sira to'ymayman.

@bolajon_sherlar



Tarbiyachi bolalarni hayvonlar
va qushlar rasmi va nomlari

bilan tanishtiradi. Tarbiyachi rasmdagi she'rlarni oldin o'zi aytadi so'ng,
bolajonlarga ham aytishni taklif qiladi



Arslon avlodi,
Chapdast botirmiz,
Pisib sichqonni
Poylab yotirmiz

@bolajon_sherlar

Jismoniy daqiqalar:

Shoxdor echki

Shohdor echki kelmoqda,



Men hozircha jojaman,
Bir kun bo'laman xo'roz.
Har tong qichqirganimda,
Deysiz: - Yashavor, shoyvoz.

@bolajon_sherlar

Bolalarni ko'rmogchi.

Kim ichmasa sutini,

Kim yemasa oshini,

Suzib oladi uni.

Biz o'rmonga boramiz,

Yelkamizda boltamiz.

1,2,3,4,5,6,7, ketdi

Ufff charchadikkk !!!

Mashg'ulotning yakuniy qismi:

Tarbiyachi mashg'ulotni mustahkamlash uchun "Ajoyib xaltacha" o'yinidan foydalanamiz. Bunda bolajonlar orasidan bittadan ishtirokchi chiqariladi va ajoyib xaltachani ichiga solingan hayvonlar va qushlar haykalchalarini olib nomini, rangini, uy yoki yovvoyi hayvon ekanligini, hayvon yoki qushlarni nimalar bilan oziqlanishi haqida ma'lumot beradi. Qolgan ishtirokchilar ham navbat bilan chiqadi.

Tarbiyachi bolalarning topshiriqlarni qanday qilib bajarishini nazorat qilib boradi.

To'g'ri bajargan bolalarga yulduzchalar berib rag'batlantiriladi.

**KATTA VA TAYYORLOV GURUH YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI
RIVOJLANTIRISHNING O`ZIGA XOSLIGI**

Maktabgacha katta yoshdagi davrda nutqiy tarbiyaning mazmuni ikki o‘zaro bog‘liq sohani tashkil etadi. Bular: ona tilini (fonetika, leksika, grammatika) hamda bilish faoliyati va muloqotda tilni qo‘llash usullarini o‘qitish. Tilni egallash atrof-muhitdagi hodisalar va ko‘p turdagi muloqotlar haqidagi bilimlarning kengayish jarayonida yuz beradi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirishdagi markaziy bo‘g‘in — til va nutqni anglash vazifalarini bolaga tushunarli shakllarda shakllantirish hisoblanadi. Tilni egallash sohasida uch bo‘g‘in ajralib chiqadi: atrofdagilar bilan his-hayajonli aloqalarni yo‘lga qo‘yish; fikrni shakllantira olish, axborot — matn qura olish qobiliyati; sherik bilan nutqiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olish. Maktabgacha katta yoshdagi davrda tengdoshlar bilan muloqot kommunikativ faoliyat sohasi sifatida oldingi o‘ringa chiqadi. Bu faoliyat sohasida bola o‘zining muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi, tilni bilish va ravon nutqni rivojlantirish borasidagi o‘z yutuqlari bilan o‘rtoqlashadi va sheriklar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.

Maktabgacha katta yoshdagilar kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish, uyushtirilgan so‘zli o‘yinlar va mashg‘ulotlar nutqni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadilar.

Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun kooperativ tUSDagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat asta-sekin shakllanadi. Dastlab bolalar ro‘y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, ya‘ni chizilgan narsalarni so‘z bilan ifodalagani, o‘z hayotidagi biron-bir voqea to‘g‘risida so‘zlab bergani holda bir-birlariga yaqin joyda harakat qiladilar. Bu vaziyatda nutq tengdoshning ishtiroki bilan hamda u bilan gaplashish, rejalashtirishni bajarish va o‘z faoliyatini tashkil etish, shuningdek ijtimoiy aloqa o‘rnatish imkoniyati bilan rag‘batlantiriladi.

Bolalar o‘rtasidagi muloqot asosan amaliy tusga ega. Dialog ko‘pincha shunday shaklda bo‘ladiki, unda bola sherigining qisqa luqmalariga javob beradi yoki ro‘y berayotgan hodisaga nisbatan o‘z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ko‘pgina shunday xalq o‘yinlari borki, ularda bolalar bir-birlariga e‘tiborni qaratishni, do‘stlarni ovozidan, kiyimidan, yurishidan tanib olishni, nutqiy aloqa o‘rnatishni o‘rganib oladilar.

Stol o‘yinlari («loto», «domino») dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yishning ajoyib vositalaridir. Aynan juftlikdagi o‘yinlarda bolalar dialogik hamkorlik vositalari: navbatga rioya qilish, bir-birlarini ismini aytib yaxshi muomalada bo‘lish, o‘z nuqtai-nazarini dalillagan holda himoya qilish, sherik bilan gaplarini muvofiqlashtirish usullarini o‘rganib oladilar. Barcha turdagi nutq vazifalari: berilgan tovushli so‘zni tanlab olish, artikulyasiya va akustika jihatidan yaqin

tovushlarni ajrata bilish, umulashtiruvchi nomlariga qarab tasniflash, rasmlar seriyasi («Tovushni top», «Nima yo‘q». «Ushlab ko‘rib top», «Eslab qol va chiz») asosida birgalikda hikoya qilish yuqoridagi o‘yinlarning bilish asosi sifatida chiqishlari mumkin.

Didaktik o‘yinlarda bolalar izohlovchi nutqni ham o‘rganadilar. Buning uchun katta odam dastlab bir bolaga yangi o‘yinni o‘rgatadi, keyin esa boshqa bolalarga shu o‘yinni o‘ynashni taklif qiladi. O‘rgatilgan bola o‘ziga notanish bo‘lgan bolalar bilan o‘yinni yo‘lga qo‘yish uchun o‘yin mazmuni va qoidalarini tushuntirib berishga majbur. Tarbiyachi esa unga yo‘naltiruvchi savollarni berish orqali yordam beradi.

Jamoaviy suhbatlar, gurunglar dialogni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir bola o‘z fikrini aytish imkoniyatiga ega bo‘lishi va uni eshitishlari uchun yuqoridagi suhbatlarni bolalarning kichik guruhlarida uyushtirish zarur. Shaxsiy tajribadan kelib chiquvchi biron-bir voqea, turmushdagi qiziq voqealar, tasavvur etiladigan turli vaziyatlar (begonalarga eshikni ochish mumkinmi va nega? It hurayotganida nima uchun undan qochish kerak va h.) bunday suhbatlarning mavzui bo‘lishi

Kooperativ tuzdagi asosiy faoliyat turi — syujetli-rolli o‘yinlardir. Maktabgacha davrdagi katta yoshda bu o‘yinlar xayolparastlik o‘yinlariga aylanadi, chunki unda bolalar sarguzashtlar to‘qiydilar va ularni tasavvur etish bilan cheklanadilar. Faoliyat birgalikda hikoya qilish tusini oladi. Bu o‘yin va nutq rivojining juda yuqori darajasidir. Bolalar ko‘pincha yo‘naltiruvchi savollar beruvchi, syujetning davomini aytib turuvchi, navbat tashkil qilishga yordam beruvchi katga odam ishtirokiga ehtiyoj sezadilar.

An’anaviy ertakdagi qaxramonlarni, voqea joyi, sharoit, sehrlil buyumlarni almashtirgan holda to‘qiladigan sehrlil ertak bunday xayolot o‘yinlari mavzulari bo‘lishi mumkin. Uyin bolalar qadamba-qadam tuzadigan (lavhalarning sxematik tasvirini chizadilar) va «ovoz beradigan» syujet rivoji asosida ikki bolaning birgalikda hikoya to‘qishiga : aylanib ketishi mumkin. ,

Pedagogaing hikoya mavzusini, voqealar rivojini, voqealarning ehtimoliy yakunini, so‘z shaklini aytib berishi birgalikdaga so‘z ijodkorligi uchun katta ahamiyatga egadir. Birgalikda hikoya qilib berish dastlab dialog ko‘rinishiga ega bo‘ladi, bunda katta odam savol beradi, bola javob beradi, katta odam gapni boshlaydi, bola esa uni nihoyasiga etkazadi. Bunday dialogdan nutq — monolog tugaladi. Keyinchalik bola monologa asosida bolalarning birgalikdagi ijodkorligi boshlanadi, u kattaning bola bilan dialogi shaklini takrorlaydi. Birgaliksa hikoya

qilish uchun yaxshi asos rasmlar turkumi bilan ishlashda, rollarga bo‘linib hikoya qilib berishda, o‘yin-sahnalashtirishlarda yaratiladi.

Maktabgacha katta yosh — bolaning nutqni o‘rganishga qizg‘in kirishish, til voqeligini eng oddiy tarzda anglash davridir. Maktabgacha yoshdagi bolaning til sohasidaga boy tajribasi, aniq, obrazli so‘zda ifodalangan yorqin taassurotlari, kechinmalari uning til va nutq sohasidagi mustaqil faoliyatining muhim shartidir.

Muammoli nutq holatlari fonetik, leksik va grammatik mazmundagi turli so‘zli didaktik o‘yinlarda modellashtiriladi. SHuning uchun maktabgacha ta‘lim muassasalarida didaktik o‘yinlarni tashkil qilishni bolalarda so‘zga nisbatan lingvistik munosabatni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Leksik mazmundagi o‘yinlar va mashqlar nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli buyumlar va ob’ektlarni qiyoslash, ularning turli umumiy xususiyatlari va vazifalarini ajratish muhim ahamiyatga egadir. Real narsalar, ob’ektlar (o‘yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebellar va h.) ham va tasavvur qilinadigan vaziyatlar (quvnoq va ma’yus ayiqcha ertagi va kechki ob-havo, qahramonning voqea boshidagi va uning yakunidagi kayfiyati) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoyani boshlashdan oldingi lug‘at mashqlari bolalar ravon nutqining aniq va obrazli so‘zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar, mashqyaar va grammatik mazmundagi muammoli vaziyatlar — nutqning grammatik to‘g‘riligini rivojlantirish, bolalarning grammatik shakllar sohasidagi qidiruv faolligining muhim shartidir. To‘g‘ri shaklni «ushlab ko‘rish» orqali bola so‘z bilan sinov o‘gkazar ekan, u nutqning jarangini tinglashni, so‘zlarni beixtiyor almashtirishni, grammatik o‘rin bosuvchilarini qo‘yishni, shakl va so‘z yasash qoidalarini chiqarishni o‘rganadi.

Muammoli nutq vaziyatlarida («yozma nutq» vaziyati, bunda bola hikoyani aytib turadi, katta odam yozib oladi; birgaliqda ijod qilish vaziyati, bunda hikoyani katga odam boshlaydi, bola esa davom ettiradi) bolalar turli tarkibdagi gaplarni tuzish, nutqqa tuzatish kiritishni o‘rganadilar.

Turli toifadagi so‘zli o‘yinlar, mashqlar, muammoli vaziyatlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning asta-sekin murakkablashuvi, muammoli nutq vazifalarini muntazam ravishda ko‘yib borish — to‘laqonli nutqiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar tili va ularning ravon nutqini rivojlantirishga doir doimiy ishlarning maqbul shakli maxsus iutq mashg‘ulotlari hisoblanadi, unda nutqni rivojlantirishga oid vazifalar yalpi tarzda va o‘zaro bog‘liklikda hal etiladi.

To'g'ri tarbiya va organik kamchiliklarga yo'l qo'yilmagan taqdirda bola olti yoshga kelib ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana oladi.

Yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallab oladi hamda yaqinlari va bolalar bilan erkin muloqot kildadi. Dialogda tashabbus ko'rsatib, mulohaza yuritadi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb kerakligini biladi, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob beradi; fikrlarini noto'liq va to'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalaydi; tanish ertaklar, multfilmlar, kitoblar, suratlar mazmunini hikoya qilib berishga, hikoya to'qishga qiziqish bildiradi; mulohaza yuritishda nutqning turli qismlaridan, o'xshatishlardan, taqqoslashlardan, sinonimlardan foydalanadi; nutqqa tanqidiy munosabat biddira boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intaladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, grammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi.

KATTA VA TAYYORLOV GURUHLAR UCHUN NUTQNI RIVOJLANTISIH MASHG'ULOTI ISHLANMALARI

Mashg'ulot nomi: Nutqni rivojlantirish

Mashg'ulot mavzusi: “Vatan himoyachilari kuni”

Guruh: Katta guruh

Mashg'ulot maqsadi: Bolalarga bayramlarni har doim ko'tarinki ruhda nishonlashga o'rgatish, kasblarga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, shuningdek, aqliy va axloqiy tarbiya berish.

Tarbiyaviy: Bolalarni Vatanga muhabbat ruhida barkamol inson etib tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

Ta'limiy: Bolalarga Vatanni himoyalash har bir fuqaroning, shuningdek ularning ham burchi ekanligi, o'gil bolalar 18 yoshga to'lganda Harbiy va Muqobil xizmatni o'tashga borishlarini, Vatanni himoya qilish uchun ulardan hozirdan nimalar talab qilinishini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: Ularni lug'at boyligini oshirish, rasmga qarab hikoya qilishga, yangi so'zlarni tog'ri tallaffuz qilishga o'rgatish. Ularda mavzu bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish, qo'shiq va she'r yodlatish va uni ifodali aytishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar:Harbiylar tasviri tushirilgan rasmlar, Sulaymon To'raning “Askarlar qo'shig'i”, Po'lat Mo'minni “Askar” she'ri, rag'batlantiruvchi kartochkalar.

Metod va usullar :Savol-javob, ko'rgazmalilik, tushuntirish, hikoya qilish , o'yin, rag'batlantirish.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu-alaykum aziz bolajonlar bugun biz sizlar bilan “Vatan himoyachilari” mavzusida mashg'ulot o'tamiz. Mashg'ulotga tayyormisizlar?

Bolalar:Ha.....

Tarbiyachi: Unda hammamiz “Mashg’ulotni boshlaymiz” she’rini birgalikda aytamiz.

Hamma: O’ng tomonga sakraymiz,
Chap tomonga sakraymiz.
O’ynab kulib shodlanib,
Mashg’ulotni boshlaymiz.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar! Endi o’tgan mavzuni takrorlab olamiz.
O’zbekistonning birinchi Prezidenti kim? Qani Gulchehraxon sen aytchi qizim.

Gulchehra: Islom Abdug’aniyevich Karimov.

Tarbiyachi: To’g’ri! Mirjalol endi sen aytchi- O’zbekiston poytaxti qayer?



Mirjalol: Toshkent!

Tarbiyachi: Yaxshi! Ana bolajonlar o’tgan mavzuni ham takrorlab oldik, endi yangi mavzu bilan tanishamiz. Vatan bu biz tug’ilib o’sgan zamin uni himoyalash har bir fuqaroning, shuningdek, sizning ham burchingiz. Sizlar buning uchun a’lo baholarga o’qishinglar, ota-

onalaringni, ustozlaringni aytganlarini qilishlaring kerak. O’zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Vatan himoyachilari kunini belgilash to’g’risidagi” Qonuniga binoan mamlakatimizda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni milliy bayram sifatida katta tantana bilan nishonlash o’ziga xos an’anaga aylangan. Bu bejiz emas, albatta. Sizu bizning bugungidek tinch, xotirjam hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz ishonchli tarzda himoya qilinmoqda. Bunday ma’suliyatli vazifani sidqidildan bajarayotgan

o'g'lonlarimizni har qancha ko'kka ko'tarsak , e'zozlasak arziydi. Bolajonlar sizlar ham shunday bo'lishga harakat qilasizlarmi?

Bolalar: Haaa..

Tarbiyachi: Bolalar sizlar ham Vatan himoyachilari haqida she'r bilasizlarmi?

Bolalar: Haa...

Furqat: Birkun katta bo'lamiz,
O'n yettiga to'lamiz
Mustaqil ona yurtga,
Kamil farzand bo'lamiz.
Biz hozircha bolamiz,
Bog'dagi gul lolamiz
Tinchliksevar xalqimning,
Mard jasur o'g'lonimiz.



Bir kun katta bo'lami Xuddi oydek to'lamiz. Ona yurt tuprog'ini,
Hech ham yovga bermaymiz.

Jamshid: Men sergakman doimo,
Hushyorlik menga qurol.
Darrov sezaman, hatto
Shitirlasa, gar shamol.
Qo'riqlayman el tinchin,
Tonglarning kulgusin.
Keksalar baxt, sevinchin,
Go'daklar kulgusin.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar she'ni juda ham ifodali aytdinglar! Xuddi mendek. Endichi bolajonlar rasm asosida hikoya tuzamiz. Buning uchun 3 guruhga bo'linamiz. 1-guruh nomi "Botirlar", 2-guruh "Jasurlar", 3-guruh "Dovyurak"

Tarbiyachi: Ushbu rasm asosida "Dovyuraklar" guruhining hikoyasini eshitamiz.

"Dovyuraklar" guruhi: "Biz O'zbekiston diyorida tug'ilib o'sganmiz. U hozirda tinch, osoyishta mamlakat. Bunga sabab milliy Qurolli Kuchlarimizdir. U juda katta kuch qudratga ega. Men ham katta bo'lsam armiyaga boraman, dadam, tog'am, akam kabi Vatanimga sodiq xizmat qilaman, uni yanada gullab yashnashi uchun o'z hissamni qo'shaman. Mening eng katta orzuim harbiy forma kiyish, buning uchun men yaxshi o'qib, astoydil harakat qilaman va albatta orzuimga yetishaman. Qurolim mehr-la ko'ksimda qo'yib,

Diyorim nomini ko'ksimga o'yib.

Xalqimni, elimni jonimdan suyib,

Ona-vatanimga xizmat qilaman.

Ajdodlar o'gitin yodimda saqlab,

Tinchlik kalomin doimo yoqlab,

Sharafli farzandlik burchini oqlab.

Ona-vatanimga xizmat qilaman."

Tarbiyachi Barakalla! "Dovyuraklar" juda ajoyib hikoya tuzibsizlar, menga juda yoqdi. Hikoyani endi "Botirlar" va "Jasurlar" guruhidan eshitsak.

Tayyormisizlar ?

Bolalar: Ha...

Tarbiyachi: Unda birinchi bo'lib "Botirlar"dan keyin esa "Jasurlar"dan tuzgan hikoyasini tinglaymiz. (bolalar hikoyasini aytib berishadi hikoyadan so'ng tarbiyachi ularni sehrli so'zlar bilan rag'batlantiradi)

Jismoniy daqiqa: **Tarbiyachi:** Bolajonlar jismoniy daqiqa vaqti, hamma o'rnidan tursin, bir qator bo'lib saflaning. Meni ortimdan takrorlang. To'ra Sulaymonning "Askarlar qo'shig'i" nomli qo'shig'ini aytamiz.

Tarbiyachi: Bir-ikki, uch,

Hamma: Saflanamiz zich.

Tarbiyachi: Baland bo'lsin parvozing,

Hamma: Samolarda uch.

Tarbiyachi: Bir-ikki, uch,

Hamma: Doim zafar quch.

Tarbiyachi: Bir-ikki, uch,

Hamma: Tanga sig'mas kuch,

Tarbiyachi: Va tan uchun ko'ksimiz -

Hamma: -Qalqon va qilich.

Tarbiyachi: Bir-ikki, uch,

Hamma: Olam bo'lsin tinch.

Tarbiyachi: Bir-ikki, uch,

Hamma: Ona yurtni qo'riqlash .

Hamma: -Eng muqaddas burch!

Tarbiyachi: Bolajonlar mashg'ulotimiz sizlarga yoqdimi?

Bolalar: Ha judayam yoqdi.

Mustahkamlovchi qism: (bolalar ichidan shifokor, o't o'chiruvchi, militsioner rollari uchun tanlab olinadi)

Tarbiyachi: Bolalar agar birortamizdan isitma chiqsa bizga kim keak bo'ladi?

Bolalar: Shifokor

Tarbiyachi: Juda to'g'ri! Biz ularni qanday chaqiramiz?

Shifokor: Isitmangiz baland bo'lsa,

Kasallik bu, yo'q mador,

03 ga xabar bersang—

Shifokordir madadkor!

(shifokor o'z vazifalarini tushuntirib joyiga o'tiradi)

Tarbiyachi: Keling, yana bir vaziyatni ko'rib chiqaylik:

Cho'g'dan chiqdi alanga

Tez chaqirgin yordamga

01 ni terib shu payt—



Manzilingni aniq ayt!



O't o'chiruvchi: Siz yaxshi bola bo'lsangiz, kattalar ishda bo'lsa— gugurt o'ynamaysiz, gaz oldiga bormaysiz, Chunki, bunday o'yinlarning oxiri shifoxonada tugaydi. O't balosi—mudhish fojia, undan saqlaning.

(o't o'chiruvchi ham o'z vazifalarini tushuntirib joyiga o'tiradi, bolalar unga rahmat aytishadi)

Tarbiyachi: 02 xizmati haqida nima bilasiz?

Militsioner: 02 deb aytdingizmi? Odatda, "militsioner keldi" deb, men bilan kichkina to'polonchi bolalarni qo'rqitishadi.

Agar, sodir bo'lsa o'g'irlik,

Urish, janjal bosqinlik—

02 da har kun bedorman,

Ximoyaga doim tayyorman.

("Militsioner" ham Qonun va o'z vazifalarini tushuntirib beradi)

Tarbiyachi: Mana bolalar – 01, 02, 03—xizmatlari haqida bilimlaringizni boyitib oldingiz. Odobli bo'lsangiz, chiniqtirish, badantarbiya mashqlarini bajarsangiz, tartib va intizomlarga rioya qilsangiz bu raqamlarga murojaat qilishning xojati qolmaydi.

(shunday qilib mashg'ulot yakunlanadi, mashg'ulot yakunida yaxshi ishtirok etgan bolalarni rag'batlantiriladi)

Uyga vazifa: 02 xizmati xaqida yana ham ko'p narsalarni so'rab, o'rganish.

Ular foydalanadigan qurol aslahalar bilan tanishib kelish.

Mashg'ulot: Nutq rivojlantirish

Mavzu: Xotira kuni

Guruh: Katta

Mashg'ulotning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: Bolalarga xotira kuni haqida yetarli tushunchalarni berish.

Tarbiyaviy maqsad: Tarbiyalanuvchilarda xotira kuni, ajdodlarimizning qilgan ishari, qoldirgan yodgorliklariga ularga mos farzand bo'lib yetishishiga Tarbiyalanuvchilarda, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash.



Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalar nutqini rivojlantirish, tez fikrlash, zukkolik, chaqqonlik qobiliyatini shakillantirish, xotira va tafakkurni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Xotira kuniga bag'ishlangan slaydlar, Ota -bobolarimizning aks ettirilgan sur'laridan foydalanish.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum bolajonlar

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Bugun biz sizlar bilan xotira kuni haqida gaplashamiz. Bizlar xotira kunida bobo buvilarimizni kattalardan xabar olgani boramiz bundan tashqari bizning ajdodlarimizni haykallarining poyiga guldastalar qo'yiladi

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar xotira kuni deganda nimalarni bilasiz?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Men sizlarga bugun ulug' ota bobolarimiz haqida gapirib beraman va ular bilan tanishtiraman. Ular haqida bilishni xoxo a similar?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Manabu rasmda shoh va shoir bobomiz Alisher Navoiy. Bizgacha ularning qator she'rlaru g'azallar yetib kelgan. Biz ularga munosib farzand bo'lib



yetishishimiz kerak. Bolajonlar
men sizlarga Aliaher Navoiyning
she'rlaridan uyga vazifa qilib
bergandim kim menga she'r aytib
betadi

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Barakallo endi bu
rasm Amur Temur bobomizning



rasmi u inson buyuk shoh va sarkarda bo'lgan ekanlar, bunisi esa Zahiriddin
Muhammad Bobur bobomiz ular ham shoh va shoir bolganlar.

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir

Har kimki jafu qilsa jafu topqusidir.

Yaxshi kishiy kormagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

Tarbiyachi: Bolajonlar manashu she'rni birgalikda yod olamiz

Bolalar javobi:

Jismoniy daqiqa: Olma

Bog'da olma pishibdi,

Qip-qizarib turibdi.

Silkitibdi shaman,

Yerga to'p-to'p tushibdi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlovchi savollar:

1. Bolajonlar biz sizlar bilan nima haqida so'zola ah did?

2. Xotirlash o'zi nima ekan?

3. Bolajonlar biz qaysi ulug' bobolarimiz haqida gap lash did?

Uyga vazifa: Zahiriddin Muhammad Bobur she'rini yod olish.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir

Har kimki javo qilsa jafu topqusidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

MASHG'ULOT NOMI: Nutqni rivojlantirish

MAVZU: "Men va mening uyim "

GURUH: Katta

TALIMIY MAQSADI: Bolalarni uy jihozlari bilan tanishtirish buyumlar va jihozlarni nomini aytishga, ularni bir biridan farqlashga o'rgatish, buyumlar rangini shaklini, katta - kichikligi va miqdori bn farqlanishini tushuntirish .

TARBIYAVIY MAQSADI: Bolalar o'rtasida do'stona munosabat yaratish katta guruhda ishlashga o'rgatish, uydagi narsa buyumlar va ehtiyotkorona munosabat xa bolishga o'rgatish .

RIVOJLANTIRUVCHI MAQSADI: Bolalarni xotira , tafakkur va irodasini o'yinlar orqali rivojlantirish, erkin fikrlash qobiliyatini shakllanishiga ko'maklashish , bog'lanishli nutq monologik nutqni rivojlantirish.

KERAKLI JIHOZLAR: Uy jihozlar surati, bo'yash uchun rasmlar, rangli qalamlar.

METOD VA USULLAR: Ko'rgazmalilik, savol - javob, og'zaki nazorat.

MASHG'ULOTNING BORISHI: Assalomu alaykum bolajonlar! Kayfiyatlaringiz a'lo darajadami? Bugun biz sizlar bilan o'z uyimiz haqida uni ozoda tutishimiz kerakligi haqida suhbatlashamiz .

TARBIYACHI: Qani bolajonlar hammamiz o'z uyimizni yaxshi koramizmi? Bizning uyimizda qanday jihozlar bor?

BOLAJONLAR JAVOBI

TARBIYACHI: Bolajonlar bugun biz sizlar bilan Anvarjonning uyiga boramiz Bolajonlar qaranglar guruhimizga kimdir xat tashlab ketibdi. Kelinglar ochib o'qib ko'ramiz. Xat kimdan ekan bolajonlar? Anvarjonning uyidan ekan

UY : Mening jajji bolajonlarim menga sizlarning yordamingiz kerak. Iltimos menga yordam beringlar

BOLAJONLAR JAVOBI

TARBIYACHI:. Voy bolalar Anvarjonning uyiga yordam berishga boramizmi ?

BOLAJONLAR JAVOBI: Xa xa xa

TARBIYACHI: Ketdik unda shoshilaylik. Qaranglar bolajonlar chindan xam Anvarjonning uyiga yordam kerak ekan. Xonalari to' zg'igan oshxona, mehmonxonalar ivirsib yotibdi.

Bolalar va tarbiyachi uyga kirishdi.

UY: Salom bolajonlar

DIYORA: Salom biz sizni yo'lingizni ochish uchun ,ivirsib yotgan xonalarni tartibga solish uchun uydagi buyumlar va jihozlarni o' rniga qo'yish uchun saramjon uy qilish uchun Keldik.Sizga yordam bermoqchimiz

UY: Men ham shuni istardim ,lekin mening yo' limni turli xil topshiriqlar to'sib qo'ygan .Shu topshiriqlarni birma - bir topsangiz, bajarsangiz mening yo' llarim ochiladi, Men esa ozoda , saramjon , shinam uyiga aylanib har bir xonam ozoda bo'ladi.Sizlarni beshta topshiriq kutib turibdi .

TARBIYACHI: Bolajonlar topshiriqlarni bajara olamizmi?

BOLAJONLAR JAVOBI:. Xa albatta harakat qilamiz.

UY:. Bolajonlar 1-topshiriqni tinglang. Bizning mehribon onajonlarimiz mazali , shirin, taomlarni qayerda pishirishadi? Uni ingliz tilida nima deyiladi.

ASILBEK: Ovqatni oshxonada pishiriladi .Biz oshxonani ingliz tilida " Kitchen " deb o'rganganmiz.


TARBIYACHI: Barakalla!! Asilbek javobing juda ham to'g'ri.To' g' rimi Bolajonlar?

BOLAJONLAR: Xa to'g' ri

UY: Raxmat bolajonlar mana 1- topshiriqni to' liq bajarganingiz uchun oshxonamiz saramjon bo' ldi.

TARBIYACHI:. Barakalla bolajonlar endi 2- topshiriqni eshitinglar." O' rtiqchasini top " o' yini orqali sizlarga UY jihozlari rasmi tushirilgan surat orasidan ortiqcha bo'lgan oshxona anjomlarini topishingi shart

UY :. Barakalla bolajonlar endi 3- topshiriqni eshitinglar sizlar tezlik bilan topishmoqlarni javobini topishingiz kerak .



TARBIYACHI: Bolajonlar topishmoqlarni javobini topamizmi?

BOLAJONLAR JAVOBI:

1. Kunduzi yeg'iladi, Kechasi yoyiladi.
2. Qo'lsiz oyoqsiz ko'ylak kiyar
3. Olti ko'zli suyakli hamma uyga kerakli.
4. Ikki opamning bo'yi teng.

TARBIYACHI: Barakalla bolajonlar topishmoqni javobini

topdingiz .

UY: Bolajonlarim topshiriqlarni bajarishda qiynalmayapsizlarmi? Mana sizlar bilan 4- topshirig'imizga ham yetib keldik .Hozir sizlar rasmga qarab qisqa hikoya tuzishingiz kerak.

TARBIYACHI: Barakalla bolalar sizlar juda qiziq hikoyalar tuzibsizlar . Bolajonlar uyni tozlashda qiynalmayapsizlarmi ?


BOLAJONLAR JAVOBI :Yo'q

UY:. Bolajonlar 5- topshirig'imizga ham yetib keldik .Bu topshirig'imiz quidagicha stol ustida uy jihozlari tushirilgan rasmlarni ranglarini topib chiroyli qilib bo'yashingiz kerak .

TARBIYACHI:. Qani bolalar rasmlarni boyay olamizmi?

BOLAJONLAR JAVOBI : Ha

TARBIYACHI: Mana bolajonlar rasmlarni ham bo'yab oldik. Anvarjonning ham uyi sizlarning yordamingiz bilan bir zumda sarishta ozoda uyga aylanib qoldi.



UY: Raxmat bolajonlarim .
Bu ishlarni sizlarning
yordaminglarsiz uddalay
olmasdim .Sizlar menga
mening xonalaringa yordam
berdinglar Har bir xonam
sarishtaga aylandi.

TARBIYACHI: Qarang
bolajonlar biz ozgina qilgan
mehnatimiz tufayli uyning
ozodaligini, saramjonligini ,

sarishtaligini saqlab qoldik .Hozir endi biz sizlar bilan jismoniy daqiqa o' tkazib
olsak maylimi ?

BOLAJONLAR JAVOBI

JISMONIY DAQIQA:

O' ng qolimda DUSHANBA
Chap qo' limda SESHANBA
Yuzlarimda CHORSHANBA
So' zlarimda PAYSHANBA
Ko' zlarimda JUMAOY
Oyoqlarimda SHANBA
Dam olamiz YAKSHANBA.

TARBIYACHI: Mana jismoniy daqiqamizni ham o' tkazib oldik. Sizlarga
yoqdimi . Hammamiz endi o' z joylarimizga o' tirib olishimiz mumkin.

YAKUNIY QISM : Bolajonlar bugun biz sizlar bilan mashg' ulotimizda nimalarni
o' rgandik .

Bolajonlar : Uyning xonalari va jihozlarini

TARBIYACHI : Uy jihozlariga qani nimalar kirar ekan kim aytadi ?

Bolalar: shikaf, soat ,stul , stol



TARBIYACHI: Barakalla bolajonlar

Mashg' ulot shu tariqa baland ruh va ko' tarinki kayfiyat bilan yakunlanadi .

TARBIYACHI: Mashg' ulotda ishtirok etgan bolalarni rag' batlantiradi. Bolalarni mashg' ulotga qiziqishlarini yanada oshirish uchun ularga meva va konfetlar tarqatadi.

Mashg'ulot nomi: nutqni rivojlantirish.

Mashg'ulot mavzusi: gullab yashnayotgan bahor.

Guruh: katta

Ta'limiy maqsad: bolalarga tabiat hamda bahor fasli to'g'risidagi bilimlarni berish, bahoriy bayramlar, bahorgi ishlar, bahorda uchib keluvchi qushlar, tabiatdagi o'zgarishlar haqida tushunchalar berish, bolalarda monologik nutqni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalar qalbida ona tabiatga mehr-muhabbatni tarbiyalash, gullar, o'simliklarni sevish va ularni parvarish qilishga o'rgatish, kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarda lug'at to'plamini kengaytirish, bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, syujetli rasmlar asosida hikoya tuzishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: bahor fasli aks etgan hamda syujetli rasmlar, rag'batlantiruvchi kartochkalar va smayliklar.

Metod va usullar:

Bolalar bilan suhbat

Ko'rgazmalilik

Savol-javob

Tushuntirish

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: -Assalomu aleykum bolajonlar! Biz bugun fasllar kelinchagi bo'lgan bahor fasli to'g'risida suhbatlashamiz. Bahor faslini yoqtirmaydigan bola bo'lmasa kerak a to'g'rimi? Barchamizga bahor fasli yoqadimi?

Bolalar:

Tarbiyachi: - Bahor fasli qachon boshlanadi?

Bolalar:

Tarbiyachi :- Qani aytingchi, bolajonlar, bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Bolalar:

Tarbiyachi: -O'lkamizga qanday qushlar uchib kela boshlaydi?

Bolalar:

Tarbiyachi:- Bolajonlar, kim aytadi menga bahor faslida qanday bayramlarni nishonlaymiz?

Bolalar:

Tarbiyachi:- Ofarin bolajonlar! Barchargiz mashg'ulotimizda faol ishtirok etmoqdasiz.

Tarbiyachi:-Aytingchi bolajonlar, Navro'z bayramida qanday taomlar pishiriladi?

Bolalar:



Tarbiyachi :- Bolajonlar, endi e'tiboringizni mana bu rasimga qaratinglar. Bolalar rasimga unda ko'rganlarimiz asosida hikoya tuzishga harakat qilamiz.

Bolalar:- O'lkamizda bahor fasli.Quyosh charaqlab chiqmoqda.Qushlar uchib kelishmoqda.Bolalar bog'da mehnat

qilishmoqda. Nigora gullarga suv quymoqda. Aziz esa yerlarni yumshatmoqda. Shirin va Donyor ularga yordamlashmoqda. Bolalar juda ham xursand.

Bolalar syujetli rasm asosida hikoya tuzishga harakat qiladilar. Bolalarda rasm asosida hikoya tuzishga o'rganish asosida monologik nutq rivojlanib boradi.

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar, hikoya tuzishda faol qatnashdingiz. Endi sizlarning bilimingizni sinab ko'rish uchun topishmoqlar boraman. Sizlar uni topasizlar.



Bahorda o'sib chiqdim

Yam -yashil bo'lib chiqdim.

Bahordan darak berar

Har yili martda kelar

U yosharish bayrami

Barcha chin dildan sevar. Topishmoqlarni to'g'ri topgan bolalarga rag'batlantiruvchi kartochkalar beriladi.

Tarbiyachi: Endi sizlar bilan mashg'ulotimiz qiziqarli o'tishi uchun o'yin tashkil etamiz. Bu o'yinning nomi "Nima qayerda yashaydi?". Bolajonlar, rasmga qarab nima qayerda yashashini topasizlar.

Tarbiyachi: Bolajonlar siz bilan dam olish daqiqasi o'tkazamiz. Bu mashq bizning nutqimiz ravon bo'lishiga yordam beradi.

Barchamiz o'tirgan joyimizda ikkala qo'limizni orqa tomonlarini jiplashtiramiz. Panja va barmoqlarimizni qimirlatib, daraxt shaklini hosil qilamiz.

Daraxtning shoxi qani?

Shoxda butog'i qani?

Butoqlarda yam-yashil

Go'zal yaprog'i qani?

Mashg'ulotning yakuniy qismi:

Savol-javob asosida o'tilgan mavzuni mustahkamlash. Uyg'a vazifa qilib she'r yod oldirish.

Keldi bahor, gul bahor

Erib ketdi oppoq qor.

Uchib keldi qushlarjon

Daraxtlar taqdi marjon.

Suvlar oqar shildirab,

Yulduz boqar mildirab.

Chumolilar yayrashar,

Sho'x bulbullar yayrashar.

Rag'batlantirish. Mashg'ulot yakunida faol va yaxshi ishtirok etgan bolalarga rag'batlantiruvchi smaylik va kartochkalar beriladi.

MASHG'ULOT NOMI: Nutqni rivojlantrish

MASHG'ULOT MAVZUSI: Havo, suv, yer usti transporti.

GURUH: Katta guruh

MAQSAD:

a) Ta'limiy: Havo, suv va yer usti transporti haqida bolalar bilimlarini oshirish,

B) Tarbiyaviy: Havo, suv va yer usti transportlaridan ogoh bo'lishni o'rgatish,

C) Rivojlantiruvchi: Havo, suv va yer usti transportlari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini

Rivojlantirish.

KERAKLI JIHOZLAR: Ko'rgazmali qurollar, havo, suv va yer usti transportlarining tasviri tushirilgan

Rasmlar, samalyot, kema va avtomobillar maketi va o'yinchoqlar.

METOD VA USULLAR: Suhbat metodi; Savol-javob metodi; Ko'rgazmalilik metodi; Namuna ko'rsatish metodi; Rag'batlantirish metodi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

TARBIYACHI: Salom bolajonlar, yaxshi keldinglarmi, hamma sog'-omonmi

BOLALAR: Haaa

TARBIYACHI: Hozir o'lkamizda qaysi fasl

BOLALAR: Bahor

TARBIYACHI: Barakalla, bolajonlar



TARBIYACHI: Bilasizlarmi, bahor faslida qanday o'zgarishlar boladi. Qani kim aytadi.

BOLALAR: Daraxtlar gullaydi, qushlar uchib keladi

TARBIYACHI: To'g'ri aytingiz bolajonlar .

TARBIYACHI: Bahor faslida ham varrak ham uchirasilami

BOLALAR: Haaa

TARBIYACHI: Endi sizlar bilan

bugun bolajonlar havo, suv va yer usti transporti haqida gaplashamiz

Bolalar havo transportiga nimalar kiradi? Qani ayta olasizmi, bir oylab korinchi



BOLALAR: Samalyot,
vertalyot, raketa

TARBIYACHI:
Barakalla to'gri topdingiz

TARBIYACHI:
Bolalarga samalyot,
vertalyot, raketa rasmi
tushurilgan suratlarni
korsatadi

BOLALARDAN

BIRI: Men katta bolsam
uchuvchi bolaman,
samalyotda uchaman

TARBIYACHI: Barakalla
Umidjon
Tarbiyachi bolalarga
samalyotni tuzulishi, uning
qushlarga oxshab qanotlari
va dumi bor ekanligini va
bilan qushlarga
oxshashligini aytib otadi

TARBIYACHI: Bolajonlar
endi men sizlarga
topishmoq aytaman, topasizmi?

BOLALAR: Haaa

TARBIYACHI : Samolarda uchadi uchadi bulutlarni quchadi
Buni javobi nima?

Sanjar: Samalyot

TARBIYACHI: Barakalla Sanjar, to'gri topding



TARBIYACHI: endi bolajonlar, mashg`ulotimizni yana davom ettiramiz

TARBIYACHI: Bolarni oldiga oyinchoq va suratlarni qoyadi

Bolalardan biri: rasmlarni tomosha qila turib men katta bolsam katta mashina olaman-deb mashina suratini korsatadi

TARBIYACHI: Ofarin Sarvar barakalla

TARBIYACHI: Mashina haqida bolalarga malumot beradi

Mashinaning 4 ta baloni bo`ladi. Mashinalar yordamida insonlarning uzoq yo`li yaqin boladi.

TARBIYACHI: Bolalar biz mashinalarni ehtiyotkor bo`lib haydashimiz uchun nimalarni bilishimiz kerak.

BOLALAR: Yo`l qoidalarini

TARBIYACHI: Barakalla bolajonlar. bugungi mashg`ulotimida juda faol qatnashdinglar, rahmat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017—2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. T.: 2016 yil 29 dekabr
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari - T.: 2018 yil.
3. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. - T.: 2016 yil.
4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi - T.: 2018 yil
5. Edited by Mary Rafferty. A brief review of approaches to oral language development.-USA: 2014. Edited by R. Marlow-Ferguson Word.
6. Edited by R. Marlow-Ferguson Word Education Encyclopediya: A Survey of Educational Systems Worldwide. Farmington Hills: Gale Group, 2002.
7. F.R. Qodirova, R. M. Qodirova “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” T. “Istiqlol”, 2006.
8. F.R. Qodirova Bolalarni chet tiliga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. T: “Sano-standart” 2009 y.
9. S.Q. Shodiyeva “O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish” o‘quv qo‘llanma. T.: “O‘qituvchi” 1993 y.
10. D. R. Babayeva “Nurq o‘stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar. 2009 y.
11. D. R. Babayeva “Nurq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma TDPU 2016 yil.
12. D. R. Babayeva “Nurq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” darslik TDPU 2017 yil.
13. Jalolova G. “Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish”-T:- 2004.

MUNDARIJA

SO`Z BOSHI.....	4-bet
KICHIK VA O`RTA GURUH YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O`ZIGA XOSLIGI.....	5-bet
KICHIK VA O`RTA GURUHLAR UCHUN NUTQNI RIVOJLANTIRISH MASHG`ULOT ISHLANMALARI.....	11-bet
KATTA VA TAYYORLOV GURUH YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH HUSUSIYATLARI.....	34-bet
KATTA VA TAYYORLOV GURUHLAR UCHUN NUTQNI RIVOJLANTIRISH MASHG`ULOTI ISHLANMALARI.....	38-bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	58-bet